

MAHALLA ORQALI JINOYATCHILIKNI KAMAYTIRISH: IJTIMOY
PROFILAKTIKA IMKONIYATLARI

Azimov Hakimali

Toshkent davlat yuridik universiteti Umumta'lim fanlar va madaniyat sho`basi professori, dotsent

Bozorov Fayozbek

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs talabasi E-mail manzili: fayozbozorov006@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda mahalla orqali jinoyatchilikni kamaytirish uchun qo'llanilayotgan usullar ko'rib chiqilgan. 2025-yil va 2026-yil 3-yanvardagi PQ-1-son qarorlar tahlil qilingan, xalqaro tashkilotlar va statistika ma'lumotlari bilan taqqoslash o'tkazilgan. Maqolada Yaponiya, Skandinaviya va AQSh tajribalari ham ko'rib chiqilib, O'zbekiston sharoitiga mos takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: mahalla, ijtimoiy profilaktika, jinoyatchilikni oldini olish, xavfsizlik, yoshlar jinoyatchiligi, raqamli vositalar.

KIRISH

Jinoyatchilikni kamaytirish uchun ikki xil yo'l bor. Birinchisi, jinoyat sodir bo'lgandan keyin choralar ko'rish. Ikkinchisi, jinoyatning oldini olish. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ikkinchi yo'l ancha samarali. Lekin bu yo'lni qo'llash har bir mamlakatning o'z xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

O'zbekiston uchun bu yo'ning tayyor vositasi bor va u mahalla deb ataladi. Arabcha "joy" degan ma'noni anglatuvchi bu so'z O'zbekiston hayotida asrlar davomida shakllangan o'zini o'zi boshqarish tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda O'zbekistonda 9 361 ta mahalla bor. Ularning har birida 500 dan 10 000 gacha odam yashaydi. Bu katta ijtimoiy tarmoq jinoyatchilikka qarshi kurashda asosiy vosita bo'la oladi agar undan to'g'ri foydalanilsa. 2025-yil 3-yanvarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan PQ-1-son Qaror mahalla darajasida xavfsizlikni ta'minlashni davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylantirdi.[1] Bu qaror va 2026-yil 5-yanvardagi davomli qarori natijasida jinoyatchilik darajasi 1,5 baravarga kamaydi.[2] Biroq, bu natijani saqlash va kuchaytirish uchun aniq ilmiy tahlil kerak. Ushbu maqolaning maqsadi mahalla orqali amalga oshirilayotgan profilaktika ishlarini xalqaro tajriba bilan solishtirish va yaxshilash uchun takliflar berish.

Mahallani ko'p yillar davomida o'rgangan olim Timur Dadabaev mahallaning sovet davridan beri qanday o'zgarganini va o'zini o'zi boshqarish xususiyatini saqlab qolganini ko'rsatib bergan. Uning fikricha mahalla davlat va jamiyat o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi.[6]

Urinboev va Eraliev mahallani G'arb tushunchalariga sig'maydigan o'ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida baholaydi.[8] Ular mahallaning odamlar o'rtasida yordam va hamkorlikni shakllantirish kabi norasmiy vazifalarini o'rganishgan.

Muchow Los-Anjelesda o'tkazilgan tajribani tahlil qilib shuni aniqladi: jamoat bilan birgalikda ishlash dastlabki bosqichda jinoyatchilikni kamaytiradi. Lekin keyingi

bosqichlarda natija pasayishi mumkin. Bu esa bunday dasturlar doim kuzatilib borilishi va sharoitga qarab moslashtirilishi kerakligini ko'rsatadi.

Welsh va Piza resurslarni eng ko'p muammo bo'lgan hududlarga yo'naltirish kerakligini ta'kidlaydi. Bu O'zbekistondagi "qizil" va "sariq" mahallalar bo'yicha farqlashgan yondashuvga nazariy asos bo'la oladi.[11]

TADQIQOT USULLARI

Birinchi usul: huquqiy tahlil. 2025-yil va 2026-yil PQ-1-son qarorlar, 2022-yilgi Mahalla to'g'risidagi Farmon va 2014-yilgi Jinoyatchilikni oldini olish to'g'risidagi Qonun o'rganildi.

Ikkinchi usul: qiyosiy tahlil. O'zbekiston statistikasi Yaponiya, Skandinaviya va AQSh tajribalari bilan solishtirilib ko'rildi. UNODC, Jahon banki va BMTning hisobotlari asosida xalqaro taqqoslama amalga oshirildi.

Uchinchi usul: adabiyotlarni ko'rib chiqish. 2013 yildan 2025 yilgacha bo'lgan davrda Dadabaev, Urinboyev, Eraliev, Muchow va boshqa olimlarning ishlari tizimli o'rganildi.

To'rtinchi usul: statistik tahlil. 2024-yil uchun qayd etilgan 132 298 ta jinoyat holati ya'ni har 100 000 kishiga 200 ta jinoyat to'g'ri kelishi, yoshlar ulushi 59,4 foiz va takroriy jinoyatchilar ulushi 36,1 foiz kabi ko'rsatkichlar tahlil qilindi.[5]

NATIJALAR

PQ-1 nimani o'zgartirdi

2025-yilgi PQ-1-son Qaror mahalla xavfsizligi ishida uch muhim yangilik olib keldi.

Birinchidan, kim javobgar ekanligini aniq belgiladi. Har bir muammoli ya'ni "qizil" mahalla bitta mansabdor shaxsga birlashtirildi. Bu tuman hokimi, prokuror yoki ichki ishlar boshlig'i bo'lishi mumkin. Bundan oldin "hamma javobgar" degani amalda "hech kim javobgar emas" degani edi. Endi aniq bir kishi javob beradi.

Ikkinchidan, ilmiy yondashuvni talab qildi. "Ilmiy xulosa, tavsiya, natija" tamoyili joriy etildi. Ya'ni har bir ish faqat ko'rsatmaga emas balki dalilga asoslanishi kerak.

Uchinchidan, raqamli vositalarni ishga soldi. "Mening inspektorim" mobil ilovasi, "E-nizoli oila" moduli va elektron nazorat tizimi profilaktika ishini yangi darajaga ko'tardi.

IIV ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilda O'zbekistonda 132 298 ta jinoyat qayd etildi.[5] Bu har 100 000 kishiga 200 ta demak. Jinoyatchilar orasida yoshlar ulushi 59,4 foizni tashkil etdi. Takroriy jinoyatchilar ulushi esa 36,1 foiz. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki jinoyatchilik ko'p hollarda ishsizlik, ta'lim darajasining pastligi va ijtimoiy izolyatsiya bilan bog'liq. 7 000 dan ortiq jinoyat bevosita ishsiz odamlar tomonidan sodir etilgan. Kiberjinoyatlar 2025-yilning boshida barcha jinoyatlarning 42 foizini tashkil etgani esa raqamli xavfga e'tiborni kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi.

TDYU Yashnobod tumanida nima qilmoqda

PQ-1-son Qarorga ko'ra Toshkent davlat yuridik universiteti ya'ni TDYU o'ziga birlashtirilgan mahallalardagi jinoyatchilik sabablarini o'rganishi, tavsiyalar ishlab chiqishi va ularni amaliyotga tatbiq etishi shart. Toshkent shahri Yashnobod tumani mahallalari ham shu tizimga kiritilgan va TDYU bu mahallalar bilan bevosita ish olib bormoqda. Amalda TDYU quyidagilarni bajaradi. Birlashtirilgan mahallalardagi vaziyatni o'rganadi ya'ni jinoyat ko'p bo'lgan joylarni, asosiy sabablarni va xavf ostidagi shaxslarni aniqlaydi. Keyin tuman hokimligi va ichki ishlar aniq tavsiyalar beradi. Shu bilan birga universitetning

o'qituvchilari va talabalari mahallalarda o'tkaziladigan profilaktika tadbirlarida qatnashmoqda. Qaror talabiga ko'ra bu ishlarining sifati uchun universitetning rektori shaxsan javobgar.

Bu ish ikki tomonlama. Yashnobod tumanidagi mahalla faollari va tuman hokimligi TDYU ga aholi murojaatlari, ijtimoiy muammolar va vaziyat o'zgarishlari haqida ma'lumot beradi. TDYU esa bu ma'lumotlarni ilmiy jihatdan ko'rib chiqib yana mahallaga tavsiya sifatida qaytaradi. Natijada "ilmiy bilim bilan ko'cha tajribasi" birlashadi. Bu xalqaro amaliyotdagi hamjamiyat xavfsizligi sherikligining muvaffaqiyatli namunalariga o'xshaydi.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib bir qancha narsalarni o'rganish mumkin. Yaponiyada mahalla politsiya punkti tizimi bor. Bu tizimda politsiya xodimlari aholi bilan yaqin munosabat o'rnatib ishlaydi. Har bir aholi punktiga piyoda 10 daqiqada yetib borish mumkin. Bu O'zbekistondagi mahalla inspektori tizimiga juda o'xshaydi.

Skandinaviya mamlakatlarida jinoyatchilikka qarshi kurash ko'proq ijtimoiy tomondan olib boriladi ya'ni odamlarga ish berish, ta'lim, psixologik yordam va moddiy qo'llab quvvatlash orqali. Bu O'zbekistondagi ijtimoiy profilaktika haftaligi va hokim yordamchilari tizimiga o'xshashdir.

Los-Anjelesda esa jamoat bilan birgalikda ishlash dasturi dastlab yaxshi natija bergan. Lekin keyingi bosqichlarda samara pasaygan. Bu ish doim kuzatilib borilishi va moslashtirilishi kerakligini anglatadi.

MUHOKAMA

Mahallaning jinoyatchilikka qarshi kurashda imkoniyati hali to'liq ishlatilmagan. Mahalla rasmiy ko'rsatma ijrochisiga emas balki haqiqiy hamkorga aylantirilsa ancha kuchli vosita bo'la oladi. "Qizil" mahallalarga alohida e'tibor berish to'g'ri yo'l lekin yetarli emas. Besh yildan beri qizil toifada qolib ketgan mahallalar bor. Bu esa faqat nazoratni kuchaytirish emas, balki muammoning chuqur ildizlarini hal qilish kerakligini ko'rsatadi. "Mening inspektorim" ilovasi va "E-nizoli oila" moduli istiqbolli. Lekin ularning haqiqatda qanchalik samara berayotgani hali to'liq o'rganilmagan. 2020-yilda jinoyat sodir etuvchilar orasida yoshlar ulushi 34,3 foiz bo'lgan. 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 59,4 foizga yetdi. Bu jiddiy muammo va yoshlar bilan ishlash tizimini qaytadan ko'rib chiqish zarur.

XULOSA

O'zbekistonda mahalla orqali jinoyatchilikni kamaytirish yo'lida muhim qadamlar qo'yildi. PQ-1-son qarorlar bu ishni yangi bosqichga ko'tardi. Lekin yana ancha ish qilish kerak.

Birinchidan, har bir mahallada olib borilayotgan ishlarining natijalari faqat hisobot shaklida emas balki aniq tahlil orqali baholanishi kerak.

Ikkinchidan, yoshlar jinoyatchiligiga alohida e'tibor qaratib oila, mahalla va maktab tizimida yoshlarga ko'proq imkoniyat va yordam berilishi lozim.

Uchinchidan, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, xususan UNODC va Jahon banki bilan birgalikda ishlash natijalarni yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda jinoyatchilikni kamaytirish faqat huquq tartibot masalasi emas. Bu odamlar hayotini yaxshilash va adolatli jamiyat qurish masalasidir.

Mahalla asrlar davomida saqlanib kelgan va bugungi kunda ham O'zbekistonning eng kuchli ijtimoiy vositalaridan biri bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son Qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/7330298>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-son Qarori. Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-iyundagi PF-147-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda UP-209-son Farmoni. <https://www.lex.uz/docs/6707809>
5. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. 2024-yilda jinoyatchilik holati to'g'risida hisobot. 2025-yil 26-fevral.
6. Dadabaev, T. (2013). Community life, memory and a changing nature of mahalla identity in Uzbekistan. *Journal of Eurasian Studies*, 4(2), 181-196.
7. Dadabaev, T. (2017). Between state and society: The position of the mahalla in Uzbekistan. Palgrave Macmillan.
8. Urinboyev, R., & Eraliev, S. (2022). Informal civil society initiatives in non-Western societies: Mahallas in Uzbekistan. *Central Asian Survey*, 41(3), 477-497.
9. Ekici, B., et al. (2022). Impact of community policing on crime reduction: A meta-analysis. *Journal of Community Safety and Well-Being*, 7(3), 111-120.
10. Muchow, A. N. (2023). Community-oriented policing and violent crime: Evidence from the Los Angeles Community Safety Partnership. *Police Quarterly*.
11. Welsh, B. C., & Piza, E. L. (2024). Crime prevention for social impact and social justice. *The ANNALS of the American Academy of Political and Social Science*.
12. Signori, R., et al. (2023). Relational continuity in community policing. *Policing: A Journal of Policy and Practice*, 17.
13. UNODC Regional Office for Central Asia. (2021). UNODC promotes community policing and youth crime prevention in Uzbekistan.
14. UNODC Regional Office for Central Asia. (2024). Uzbekistan is developing its first national strategy against organized crime.
15. World Bank. (2024). Uzbekistan to improve access and quality of social services for vulnerable people.
16. UNECE. (2025). Global Assessment Uzbekistan 2024. Final Report.
17. Weisburd, D., & Majmundar, M. K. (2018). Proactive policing: Effects on crime and communities. *National Academies of Sciences*.
18. Young, A. (2022). Architecture as affective law enforcement: Theorising the Japanese koban. *Crime, Media, Culture*, 18(2), 183-202.
19. Sievers, W. E. (2002). Uzbekistan's mahalla: From Soviet to absolutist residential community associations. *The Journal of International and Comparative Law*, 2, 92-158.